


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI.....	9
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	14
Маннапова Раъно Абборовна	
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELİ	22
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS ..	29
Liu Qing	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI.....	36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo	
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA.....	41
Yorqin Xudoyberdiev	
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOIYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	53
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li	
HUDUDIY SPORT-SOĞ'LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR..	62
Misirxonov Habibxon Iskandar o'g'li	
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH	71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi	
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH	78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH	83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH.....	88
Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ORQALI TA'MINLASH.....	93
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSIYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI.....	101
Temirov E.I.	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH	109
Mutorov Ilhom Avazjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	116
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	



ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	121
Худайбердиева Камила, Абдурахманова Мунаввар	
СОВРЕМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ДОСТУПНОСТИ	127
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ	138
Ташмухамедова Карима Саматовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ОЦЕНКИ КОРПОРАТИВНОГО РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА В ИНДЕКС КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	143
Маманазаров Ойбек, Аблаева Валентина	
TURIZMDA PROFESSIONAL TA'LIM VA O'QITISH (VET) TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTLARI UCHUN SINGAPUR VA AVSTRALIYA TAJRIBASI.....	150
Abdullabekova Noilaxon G'ofurjon qizi	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI CAMELS TIZIMIDA BAHOLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK TADQIQI	156
Safaraliyev Basir Norboyevich	

UO'K: 336.722.117.7

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI CAMELS TIZIMIDA BAHOLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK TADQIQI

Safaraliyev Basir Norboyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: safaraliyevbasir@gmail.com

ORCID: 0009-0009-3278-0551

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyati samaradorligini ta'minlash hamda uning faoliyatini baholashning ahamiyati keng yoritilgan. Jumladan, tijorat banklari faoliyatini baholashda AQSh banklari faoliyatini baholash uchun qo'llaniladigan CAMELS tizimi nazariy va metodologik jihatdan tadqiq qilingan. Ushbu baholash tizimining vazifalari, bank ko'rsatkichlarini qamrab olish darajasi va baholash natijalariga ko'ra bank faoliyati bo'yicha xulosalar chiqarish hamda tegishli qarorlar qabul qilish bilan bog'liq jihatlar yoritilgan. Shu bilan birga, olib borilgan nazariy va uslubiy tahlillar asosida ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, aktivlar, kapital yetariligi, aktivlar sifati, menejment, daromad keltiruvchi aktivlar, likvidlilik, riskka sezuvchanlik, rentabellik.

Аннотация: В данной статье широко рассматривается важность обеспечения эффективности коммерческих банков и оценки их деятельности. В частности, теоретически и методологически исследуется система оценки эффективности коммерческих банков CAMELS, используемая для оценки деятельности банков США. Рассматриваются цели этой системы оценки, уровень охвата банковских показателей и аспекты, связанные с формулированием выводов об эффективности деятельности банков и принятием соответствующих решений на основе результатов оценки. Одновременно формулируются научные выводы на основе проведенного теоретического и методологического анализа.

Ключевые слова: Коммерческий банк, активы, достаточность капитала, качество активов, управление, активы приносящие доход, ликвидность, чувствительность к риску, рентабельность.

Abstract: This article broadly covers the importance of ensuring the efficiency of commercial banks and assessing their performance. In particular, the CAMELS system for assessing the performance of commercial banks, which is used to assess the performance of US banks, is theoretically and methodologically studied. The objectives of this assessment system, the level of coverage of bank indicators and aspects related to drawing conclusions on bank performance and making appropriate decisions based on the assessment results are covered. At the same time, scientific conclusions are formulated based on the theoretical and methodological analyses conducted.

Keywords: commercial bank, assets, capital adequacy, asset quality, management, income-generating assets, liquidity, risk sensitivity, profitability.

KIRISH

Milliy iqtisodiyotimizda bugungi kunda keng miqyosda islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lib, ularning barchasi mamlakatimiz aholisi turmush farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, har bir davrda amalga oshirilayotgan islohotlar izchillik bilan keyingi davrlarda ham tizimli davom ettirilishi bo'yicha strategiyalar qabul qilingan va ulkan marralar belgilab olingan. Xususan, mamlakatimizda kelgusi besh yilda yalpi ichki mahsulot hajmini 240 mlrd AQSh dollaridan oshirish orqali iqtisodiyotda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan joy olish maqsad qilingan.

Har bir iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish resurslar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu borada moliyaviy resurslar bo'yicha vositachilik roli yuqori bo'lgan tijorat banklarining faoliyat samaradorligi ham ahamiyatli hisoblanadi. Banklar tomonidan jalb qilingan resurslardan oqilona foydalanish orqali ushbu jarayonda ishtirok etuvchilarning o'zaro manfaatlarini uchun optimal darajadagi daromad olish nafaqat bank faoliyati uchun zarur, balki u xizmat ko'rsatuvchi mijozlar va hamkorlar, shuningdek, butun iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlikni



ta'minlash uchun ham dolzarb masala hisoblanadi. Bu yo'lda banklarda moliyaviy barqarorlik ta'minlanganligi va faoliyat samarali tashkil etilganligi muhim hisoblanadi.

Shu bois doimiy ravishda tijorat banklarining faoliyatini nazorat qilib borish, uning faoliyati natijalarini aniqlash hamda raqobatbardoshligi va jozibadorligini baholash zarurdir. Bu borada turli xil metodikalarga asoslangan mahalliy va xalqaro baholash tizimlari mavjud bo'lib, biz tadqiqotimizda tijorat banklari faoliyatini baholashning CAMELS tizimi tadqiqini amalga oshiramiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kungacha ko'plab iqtisodchi olimlar o'z tadqiqotlarida tijorat banklari faoliyatini CAMELS tizimi asosida baholash bilan bog'liq fikrlarini bildirib o'tishgan.

Iqtisodiyotlarda bank tizimining rivojlanib borishi bilan birgalikda tijorat banklari faoliyati va ularning holatini baholashning turli ko'rinishdagi usullari, jumladan, reyting tizimlari, nisbiy ko'rsatkichlar tahlili va bank mavqeini aniqlashning boshqa metodlari ishlab chiqildi. Taniqli iqtisodchi olim Oleg Lavrushin ularni rasmiy va ekspert usullari guruhiga bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi (Lavrushin, 2014).

Rus iqtisodchilaridan Yelena Trofimova o'z tadqiqotlarida CAMELS metodologiyasining afzalliklari sifatida metodologiya tijorat banklarining barqarorligini baholash uchun zarur bo'lgan barcha bazaviy (asosiy) ko'rsatkichlarni qamrab olganligini hamda undagi tizim qoidalarining eng yuqori darajada aniqligi va standartlashtirilganligi sababli rivojlanayotgan mamlakatlarda ham tijorat banklari faoliyatini baholash uchun undan foydalanish imkoniyatining mavjudligini e'tirof etadi (Trofimova, 2017).


Shuningdek, iqtisodchi mazkur metodologiyada ayrim cheklanishlar ham mavjudligini qayd etadi: 1) rasmiylashtirishning yuqori darajada emasligi, ya'ni tijorat bankida likvidlikning qanday darajasi eng optimal, samarali yoki kritik daraja deb hisoblanishini aniqlashtiruvchi tarkibiy ballarni belgilash uchun aniq mezonlarning mavjud emasligi; 2) tijorat bankining yakuniy ishonchlilik ko'rsatkichini komponent ballar yig'indisi sifatida hisoblashga asoslanganligi, ya'ni har bir komponent ball shakllanishining yakuniy bahoga individual tarzda ta'siri hisobga olinmasligi; 3) amalga oshirilgan baholashning yakuniy natijasi baholovchi ekspertlarning professionallik darajasi va xolis yondashuviga sezilarli darajada bog'liq bo'lib, bunga sabab o'tkaziladigan tahlil tijorat bankida amalga oshirilgan nazorat auditi xulosasi asosidagi hisobot ma'lumotlariga asoslanishi (faqat ayrim ushbu hisobotlarda mavjud bo'lmagan ma'lumotlarga tashqi ma'lumot manbalaridan olinadi).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsadi mamlakatimiz bank tizimida faoliyat yuritayotgan banklarning aktivlari sifatini yaxshilash orqali banklar faoliyati samaradorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy xulosalarni shakllantirish va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shu maqsadda maqolada tijorat banklari faoliyatini baholashning CAMELS tizimi nazariy va uslubiy jihatdan o'rganilgan holda, ushbu usullar orqali tijorat banki faoliyati samaradorligi tahlil qilingandagi natijalar asosida xulosalar berishning uslubiy jihatlari yoritilgan. Ushbu maqolaning nazariy, amaliy va uslubiy asosi sifatida sohaga taalluqli adabiyotlar va ilmiy maqolalar, soha olimlari hamda ekspertlarining tijorat banklari faoliyati samaradorligini ta'minlash va uni baholashga doir fikr-mulohazalarini tahlil qilish, hodisa va jarayonlarga tizimli yondashish, ekspert baholash, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Tadqiqot usullaridan umimlashtirish, qiyosiy taqqoslash hamda tizimli tahlil kabilardan foydalanilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

CAMELS metodologiyasida tijorat banklarining moliyaviy holatini baholash maqsad qilib olingan bo'lib, unda ushbu maqsadga yo'naltirilgan bir qancha vazifalar belgilangan (1-rasm).



1-rasm. CAMELS metodikasi maqsadiga yo'naltirilgan vazifalari

Capital adequacy – ushbu ko'rsatkich tijorat bankining o'z resurslarini shakllantirish jarayonida kreditorlar va omonatchilar huquq va manfaatlarini himoya qilish (o'z navbatida, ular oldidagi ishonchlikni ta'minlash) uchun zarur bo'lgan xususiy kapital hajmining yetarlilik darajasini o'lchashni ifodalaydi. Bankdagi xususiy kapitalning yetarli darajada bo'lishi uning hayotiylikni ta'minlaydi, chunki ushbu ko'rsatkich hajmi bank passivlari tarkibida qanchalik yuqori ulushga ega bo'lsa, u bilan bog'liq kutilgan va kutilmagan beqaror holatlardan o'tib yashab qolish, shuningdek, mijozlardan jalb qilingan mablag'larni saqlab qolish va yo'qotishlardan qochish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Umuman olganda, metodologiyadagi ushbu ko'rsatkich bank amalga oshirayotgan kreditlash va investitsiyalash faoliyati bilan bog'liq risklarni qoplash uchun undagi xususiy kapitalning yetarliligini baholaydi (2-rasm).



2-rasm. CAMELS metodikasi tarkibiy komponentlari¹

Ushbu komponent bo'yicha talab Markaziy bankning prudensial me'yorlari ro'yxatida birinchi o'rinda bo'lib, misol uchun bugungi kunda regulativ kapitalning monandlik koeffitsiyenti (jami regulativ kapitalning tavakkalchilikka tortilgan aktivlarga nisbati) 0,130 ni tashkil etadi. Hisoblash metodikasidan anglash mumkinki, agar tijorat banki faoliyatida risk darajasi past bo'lsa, u jalb qilingan mablag'lar bo'yicha mijozlar manfaatlarini kichikroq miqdordagi xususiy kapital bilan kafolatlash imkoniga ham ega bo'lishi mumkin (yoki aksincha).

Asset quality – metodologiyaning ushbu komponenti tijorat banki kredit portfelining qanchalik xavfsiz darajada ekanligini, shuningdek, bank mijozlari tomonidan olingan qarz majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajara olish bilan bog'liq risk darajasini baholaydi. Baholash natijasining ijobiy ko'rsatkichi bankning kreditlashdagi maqbul xavf darajasi ko'rsatkichini anglatadi va bunda mijozlarga taqdim etilgan aktivlarning qaytishi yuqori ehtimollik bilan ta'minlanadi. Mazkur komponent ko'rsatkichi quyidagilar bilan bog'liq holatlarni o'z ichiga oladi: 1) qaytarilish ehtimoli va muddatiga qarab aktivlar tasnifi (standart, substandart, qoniqarsiz, shubhali va umidsiz toifalar bo'yicha); 2) tijorat bankida mavjud aktivlarning iqtisodiyotning turli tarmoqlari,

1 Tadqiqotlar asosida mualliflik ishlani.



shuningdek, turli mijozlar kesimida optimal darajada taqsimlanganligini; 3) tijorat banki faoliyati natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun yaratilgan zaxiralar miqdorining yetarlilik darajasini; 4) to'lov muddati o'tgan yoki qaytarilish ehtimoli past bo'lgan kreditlarning (muammoli kreditlarning) umumiy kredit portfelidagi ulushi kabilarni.

Management – tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va uning umumiy faoliyatini baholashning CAMELS xalqaro tizimidagi boshqaruv komponenti bank faoliyati davomida amalga oshirilgan operatsiyalarning samaradorligini bank boshqaruv tizimi va uning sifati nuqtai nazaridan baholaydi. Yana bir jihati borki, bank boshqaruvi sifati ma'lum bir davr davomida tijorat banki faoliyatidagi daromadlarning shakllanishi va undagi likvidlikning ta'minlanish darajasi, qolaversa, kapital miqdorining o'zgarishi va aktivlar sifatining o'zgarishi hamda amalga oshirilgan bank operatsiyalarida yuzaga kelgan xavflar darajasida aks etganligi bois ushbu ko'rsatkich yakunda baholanadi. Mazkur ko'rsatkich orqali bank faoliyati tahlil qilingan holda baholanishida: 1) bank rahbariyati kredit, likvidlik va valyuta risklari kabi bozor risklarini qay darajada aniqlay olishi hamda ushbu xavflarni cheklash uchun qanday siyosatlardan qanchalik samarali foydalanishi (risklarni boshqarish tizimi); 2) bank rahbariyatining kelajakni aniq ko'ra bilish qobiliyati, tuzilgan strategiyalar va biznes rejalarining haqiqatga yaqinligi hamda real asoslanganligi va shularga mos ravishda xodimlar malakasining professionallik darajasi; 3) bankda nazorat tizimi va ichki auditning mavjudligi hamda samarali ishlashi, shuningdek, qonunchilik va me'yoriy talablarga rioya etilishi; 4) tijorat bankida qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarida zamonaviy texnologik baza asosida aniq ma'lumotlardan foydalanilishi kabi muhim jihatlar o'rganiladi.

Earnings – tijorat bankining amalga oshirgan bank operatsiyalari orqali barqaror foyda topishi, kelgusida yuzaga keladigan zararlarni qoplashi va shu bilan birga xususiy kapitalni oshirish imkoniyatini baholash bo'yicha o'rganilayotgan metodologiyaning komponent ko'rsatkichi daromadlilik deb nomlanadi. Amaliyotdan ma'lumki, har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ko'rsatkichlarining dinamik o'sishi va bozorda raqobatbardoshligini saqlab qolishi uchun barqaror foydaga erishishi muhimdir, shu jumladan, tijorat banklari uchun ham. Bankda daromadlilik operatsion xarajatlarni qoplashi va kapitalning o'sishini ta'minlaydigan darajada bo'lishi lozim. Metodologiyaga asosan tijorat banklari foydalilik (daromadlilik) darajasini baholashda: 1) vaqtinchalik va favqulodda daromadlarni emas, aksincha, bankning kredit berish va komission daromadlarni shakllantiradigan asosiy xizmatlari orqali olinadigan barqaror foydani (asosiy daromadlarni) tahlil qilish; 2) berilgan kreditlar orqali topiladigan foizlar va jalb qilingan resurslar (depozitlar va kredit majburiyatlari) uchun to'lanadigan foizlar o'rtasidagi tafovutning (sof foizli marjaning) yetarli, shu bilan birga optimal darajada ekanligini; 3) tijorat bankida mavjud aktivlardan qanchalik samarali foydalanilayotganligini (aktivlar rentabelligi – ROA) aniqlash; 4) kelgusida ko'zda tutilmagan potensial yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarning yetarliligini ta'minlagan holda, murakkab sharoitlarda (moliyaviy va/yoki iqtisodiy inqirozlar) ham tijorat bankining foyda ko'ra olish imkoniyatlarini prognozlash; 5) shakllangan sof foydadan dividendlar belgilangan tartibda taqsimlangandan so'ng qancha qismi tijorat bankini rivojlantirish uchun zaxiraga yo'naltirilishi orqali xususiy kapitalni oshirishga xizmat qilayotgani kabi jihatlar qamrab olinadi.

Liquidity – metodologiyaning ushbu komponent ko'rsatkichi orqali tijorat bankining o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajara olish qobiliyati baholanadi. Deyarli har bir iqtisodiyotda ushbu ko'rsatkich regulyator tomonidan qat'iy nazoratga olingan bo'lib, uning belgilangan me'yorlarining bajarilmasligi tijorat banklariga nisbatan tegishli choralar qo'llanilishiga olib kelishi mumkin. Barcha tahlillar va CAMELS metodikasi mantiqlariga ko'ra, tijorat banklarida likvidlikning yetarli darajada mavjudligi bankning mijozlar oldidagi qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish uchun o'z aktivlarini yo'qotishlarga uchratmasdan kerakli miqdorda pulga aylantirish qobiliyati hisoblanadi. Ko'rsatkichni tahlil qilish va baholashda quyidagilarga alohida e'tibor beriladi: 1) bankda yuqori sifatli va oson naqdlashtiriladigan aktivlarning mijozlarning kutilmagan talablarini qondirishga yetarliligi; 2) bankda aktivlar va passivlarning muddatiga ko'ra muvofiqligi; 3) yuzaga kelgan qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash jarayonida tashqi samarasiz (qimmat, ishonchsiz va nobarqaror) mablag'lar manbalariga bog'liqlik darajasining yuqoriligi; 4) 30 kunlik sof pul chiqimini qoplash koeffitsiyentining holati kabilar.

Sensitivity to risk – metodologiyaning ushbu komponent ko'rsatkichi orqali tijorat banki faoliyatiga bozor tavakkalchiliklarining ta'siri baholanadi. Masalan, tijorat bankining o'zgaruvchan bozor narxlari, valyuta kursi va foiz stavkalari kabi omillarning turli darajadagi tebranishlariga qay darajada sezuvchanligi tahlil qilinadi. Ya'ni, bankning kapitali va daromadlaridagi o'zgarishlarga qay darajada ta'sirlanishi o'lchanadi. Ushbu ko'rsatkich orqali bank faoliyatini baholashdan maqsad uning bozordagi keskin o'zgarishlarga (misol uchun, Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasining oshishi yoki kamayishi kabilarga) qanchalik bardosh bera olish qobiliyatini (imkoniyatini) hamda ushbu vaziyatda undagi risklarni boshqarish mexanizmlarining samarasini baholashdan iborat (1-jadval).

1-jadval.
CAMELS metodikasi baholash tizimi va uning izohlanishi²

Balldagi bahosi	Tijorat bankining holati		Izohlar
1 ball	Kuchli va xavfsizlik darajasi juda yuqori	Mutlaqo sog'lom va barqaror	Bankda samarali boshqaruv tizim mavjud bo'lib, ba'zi ko'rsatkichlar bo'yicha ahamiyatsiz darajada chetga chiqishlar bo'lishi mumkin. Shuningdek, tashqi omillar ta'siriga chidamli bo'lib, tartibga solish bo'yicha aralashuv talab etilmagan holda minimal darajada nazorat qilish yetarli.
2 ball	Qoniqarli (barqaror)	Deyarli sog'lom va barqaror	Ahamiyatsiz darajada kichik kamchiliklar mavjud bo'lib, iqtisodiyotdagi tashqi omillar ta'siridagi tebranishlarni bartaraf eta olish imkoniyati bor. Faoliyat davomidagi yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etishda nazorat organlarining odatiy aralashuvi va nazorati yetarli.
3 ball	O'rtacha (xavflar va zaifliklar mavjud)	Bankda moliyaviy, operatsion va texnik holati minimal maqbul darajasidan qoniqarsiz darajasigacha	Tijorat banki mavjud iqtisodiy sharoitdagi salbiy o'zgarishlar bo'yicha xavflarga uchramoqda. Agar bankda mazkur xavflar bo'yicha yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishga oid haraktlar samara bermasa, unda bankrotlik ehtimoli mavjud. Shu sababli ushbu vaziyatda nazorat organlarining yordamiga ehtiyoj bo'lib, ular maxsus kuzatuvga olinadi.
4 ball	Beqarorlashuv chegarasi	Bank faoliyatida moliyaviy muammolarning jiddiy darajalari kuzatilmoqda	Bankda moliyaviy muammolarni hal qilishga e'tibor qaratilgan bo'lib, ammo kelgusida bankda barqarorligiga salbiy ta'sir yetkazadigan holatlarni hal qilishga doir chora-tadbirlar yetarli emas deb baholanadi. Shu sababli, bankda bankrotlik xavfi juda yuqori darajada. Ushbu holatda har bir kamchilikni yo'q qilish uchun doimiy puxta nazorat va aniq hamda qat'iy reja asosidagi choralar talab etiladi.
5 ball	Qoniqarsiz (o'ta xavfli holat)	Bankrotlikka olib keluvchi signallar mavjud bo'lib, tez fursatlarda bankrotlik ehtimoli yuqori darajada	Bankning to'lovga layoqatsiz bo'lish ehtimoli yuqori bo'lib bank faoliyatini qayta tiklash choralari ko'rishda aksiyadorlar va boshqa moliyalashtirish manbalarining aralashuviga zarrurat mavjud. Aks holda, bank tugatilishi uchun litsenziyani qaytarib olishgacha bo'lgan yoki boshqa banklar bilan birlashtirilish bo'yicha choralar ko'rilishi mumkin.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, CAMELS metodikasi tarkibidagi tijorat banklari faoliyatini baholovchi har bir ko'rsatkich 1 dan 5 gacha bo'lgan mezonlar asosida baholanadi. Unga ko'ra eng kichik ball, ya'ni 1 ball bank faoliyatiga salbiy ta'sir qila olmaydigan darajadagi kamchiliklargagina ega bo'lgan va umumiy holatda barqaror bank uchun beriladigan maksimal baho hisoblanadi. Aksincha, 5 ball esa bank faoliyatida uni bankrotlik holatiga tushirish ehtimoli yuqori bo'lgan juda jiddiy salbiy kamchiliklar va xatolar mavjudligi sababli nobarqaror bo'lgan, shu bois uning faoliyatiga zudlik bilan bank nazorat organlari hamda rahbariyati va aksiyadorlari hamkorligida aralashuv talab qilinadigan banklarga beriladigan ko'rsatkich darajasidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- agar bankda sifati past bo'lgan, yuqori riskka tortilgan kreditlar ko'p bo'lsa, ularni qoplash uchun katta hajmdagi xususiy kapital zarur bo'ladi. Shu sababli, tahlilchilar tomonidan tijorat banklari faoliyati mazkur komponent orqali baholanayotganda quyidagilarga e'tibor berish talab etiladi: kapital koeffitsiyentlari; aktivlarning sifat darajasi; olingan daromadlarning kapitallashuvga yo'naltirilish holati; amaldagi ichki va tashqi me'yorlarga rioya qilinishi;
- bankda aktivlar sifati uning moliyaviy barqarorligini belgilovchi eng muhim omil sifatida bank boshqaruvda e'tibor markazida bo'lishi lozim bo'lgan masala hisoblanadi. Sababi, aktivlar sifatining yomonlashuvi bankning asosiy kapitalini yemiruvchi hamda bankda likvidlilik inqirozini yuzaga keltiruvchi jarayondir; Umuman olganda, CAMELS metodikasidagi "Sensitivity to risk" ko'rsatkichi orqali:
 1. foiz stavkalarining kutilmagan holatlardagi o'zgarishlarining (foiz stavkasi riskining) tijorat bankining sof

² Tadqiqotlar asosida mualliflik ishlanmasi.



foydasiga va/yoki sof foizli marjasiga qanday ta'sir o'tkazishi;

2. tijorat banki balansidagi qimmatli qog'ozlar va faoliyati bilan bog'liq tovar narxlari yoki moliyaviy vositalar narxining pasayishi xavfining bankning moliyaviy natijalariga ta'siri;

3. iqtisodiyotdagi valyuta kursining keskin tebranishining bank balansidagi mavjud xorijiy valyutadagi aktivlar va majburiyatlar orqali faoliyatiga ehtimoliy yetkaziladigan zararlar kabi holatlarning tahlili amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Лаврушин О.И. (2014). Банковское дело. Экспресс-курс : учеб. Пособие - Москва : КноРус. - 800 с.
2. Трофимова Е.А. (2017). Оценка эффективности деятельности коммерческого банка, ее совершенствование в условиях межбанковской конкуренции. Специальность 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Екатеринбург. - 146 с.
3. Zverev A., Mandron V., Rebrina T., Mishina M. & Karavaeva Y. (2021). Investment policy of the banking sector: data from Russia. Amazonia Investiga. Volume 10 — Issue 42: 149-162 / June. <https://doi.org/10.34069/AI/2021.42.06.14>.
4. Peresetsky A.A., Karminsky A.M., Golovan S.V. (2011). Probability of Default Models of Russian Banks. Economic Change and Restructuring, vol. 44, no. 4, pp. 297-334.
5. Зубарев А.В., Бекирова О.А. (2020). Анализ факторов банковских дефолтов 2013–2019 годов. Экономическая политика. Т. 15. № 3. С. 106–133. doi:10.18288/1994-5124-2020-3-106-133.
6. Беляев И.И., Силвестров С.Н., Гаилов Т.С. (2021). Оценка устойчивости Российского банковского сектора в условиях макроэкономической волатильности. Мир новой экономики. 15(3):28-37. DOI: 10.26794/2220-6469-2021-15-3-28-37.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100